

---

## TOMORQADAN FOYDALANISH EL UCHUN YAXSHI

***Rahbar va mutasaddilarning aholi muammolari bilan joyida tanishishi, odamlar dardu tashvishini his etib, holidan xabar olishi ularni yanada ruhlantiradi. Bugun Qo'shtepa tumani hokimi I. Novikov 1-sektor hududidagi Qiyqi mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, aholining turmush tarzi bilan yaqindan tanishdi.***







---

Tuman hokimi I. Novikov yurtimizda koronavirus pandemiyasi tarqalishini oldini olish maqsadida joriy etilgan karantin kunlarida aholi salomatligini saqlash, belgilangan qoidalarga rioya etilishini ta'minlash hamda oziq-ovqat, dori-darmonga bo'lgan ehtiyojlarini o'rgandi. Oziq-ovqat do'konlari kundalik zarur mahsulotlar bilan ta'minlanganligi va narx-navoni sun'iy oshirmaslik yuzasidan savdo shaxobchalari rahbarlari bilan suhbatlashdi.







Shuningdek, aholini tomorqa yer maydonlaridan qanday foydalanayotganiga alohida e'tib qaratdi. Tomorqasiga turli qishloq xo'jaligi ekinlarini ekib daromad olishga harakat qilayotgan mehnatkash insonlarning karantin davridagi faoliyatlari bilan yaqindan tanishib, o'zining takliflarini berdi.









2020-04-16 16:09:39